

**Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan “E-auksion” elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomning 3-paragrafini (3-§. Aukcionni o‘tkazilmagan deb topish va takroriy aukcionni o‘tkazish tartibi) tartibga solish ta’sirini baholashdan o‘tkazish bo‘yicha**

### **HISOBOT**

1.	Normativ-huquqiy hujjat turi, nomi va rekvizitlari	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan “E-auksion” elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomning 3-paragrafi (3-§. Aukcionni o‘tkazilmagan deb topish va takroriy aukcionni o‘tkazish tartibi)
2.	TSTBni o‘tkazuvchi davlat organi yoki tashkiloti	O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
3.	Vakolatli organlarning xulosalari olinganligi	Vakolatli organlarning TSTB hisoboti yuzasidan xulosalari belgilangan tartibda olinadi.
4.	Sana	17.07.2025
<b>Tartibga solish ta’sirini baholash natijalari</b>		
5.	<b>Xulosa</b>	TSTBdan o‘tkazish natijalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatdagi tartibga solish usullarining amal qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi, ularga o‘zgartirish kiritish yoki ularni bekor qilish zarurati mavjud emas.
6.	<b>Hujjatning ta’sir doirasi</b>	tartibga solish usuli ta’sir ko‘rsatayotgan obyektlar va/yoki subyektlar (manfaatdor tomonlar) ( <i>maksimal 10 qator</i> ).  “E-auksion” elektron savdo platformasidagi elektron onlayn-auksion savdolarida auksion savdolariga chiqarilgan davlat aktivlari, davlat mulki ijarasi, ko‘chmas savdo joylari, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan ijara huquqi asosidagi yer uchastkalari, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmangan mulk hamda ijara huquqi asosida yer uchastkalari tartibga solish usuli ta’sir ko‘rsatayotgan obyektlar hisoblanadi.

2023 va 2024-yillarda takroriy elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilgan:

Davlat aktivlari: 1 018 ta (2023-yil) – 1 273 ta (2024-yil);

Davlat mulki ijarasi: 13 020 ta (2023-yil) – 8 630 ta (2024-yil);

Ko‘chma savdo joylari: 29 440 ta (2023-yil) – 8 175 ta (2024-yil);

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan ijara huquqi asosidagi yer uchastkalari: 53 675 ta (2023-yil) – 79 716 ta (2024-yil);

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmangan mulk hamda ijara huquqi asosida yer uchastkalari: 55 953 ta (2023-yil) – 84 573 tani (2024-yil) tashkil etgan.

“E-auksion” elektron savdo platformasidagi elektron onlayn-auksion savdolarida ishtirok etuvchi jismoniy va yuridik shaxslar tartibga solish usuli ta’sir ko‘rsatayotgan subyektlar hisoblanadi.

## 7. Hujjatning natijadorligi va samaradorligi

normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi natijasida erishilgan maqsadlar, ularning natijadorligi va samaradorlik ko‘rsatkichlari (maksimal 10 qator).

1. “E-auksion” elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomning 3-paragrafi amalga kiritilishi natijasida:

“E-auksion” elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksionni takroriy o‘tkazishda ochiqlikni va shaffoflikni;

ishtirokchilar huquqlarini ishonchli himoya qilinganligi;

aholining auksionda qatnashishi uchun qulayliklar va shart-sharoitlar yaratildi.

2. “E-auksion” elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomning 3-paragrafida auksion obyekti belgilangan muddat va shartlarda sotilmagan taqdirda, ularni dastlab qo‘ylgan narxni qadam-baqadam pasaytirib borish mexanizmini qo‘llagan holda sotish mumkin va bunda obyektning boshlang‘ich narxi har takroriy auksionda buyurtmachi belgilagan foizda auksion obyektining eng past narxiga qadar kamaytirilishi belgilangan.

Bu, esa o‘z navbatida belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan auksion obyektining boshlang‘ich narxiga qaraganda arzonroq narxlarda sotib olishiga imkoniyat yaratmoqda.

Natijada, jismoniy va yuridik shaxslarga 2024-yil davomida takroriy auksion savdolarida yer uchastkalari realizatsiya qilinishiga erishilgan.

Shuningdek, nizom loyihasi ishlab chiqilgan davrda auksionni o‘tkazilmagan deb topish va takroriy auksionni o‘tkazish bo‘yicha avvaldan indikativ ko‘rsatkichlarni prognoz qilish imkoni bo‘lmagan, shunga ko‘ra, erishilgan indikativ ko‘rsatkichlarni aniqlab bo‘lmaydi (ularning o‘lchov birligi va hisoblash usullari).

## 8. Hujjatning ijobiy va salbiy oqibatlari

normativ-huquqiy hujjatdagi tartibga solish usulini qo‘llashda vujudga kelgan ijobiy va salbiy oqibatlar (*maksimal 10 qator*).

Tartibga solish usulining iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik, kichik va o‘rta tadbirkorlik ta’siri hamda tartibga solish usulining ijtimoiy sohaga kambag‘allik darajasi ta’siri ijobiy hisoblanadi ya’ni bunda takroriy auksionlar natijasida ishtirokchilar tomonidan mulklarning arzonroqqa realizatsiya qilinishi natijasida ular mablag‘larini kamroq sarf-xarajat qilishlariga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqlashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi PF-287сон Farmoniga muvofiq 4-5 toifaga kiritilgan hududlardagi mulklarni sotib olish to‘lovlarini foizsiz 5 yilga bo‘lib to‘lash joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-son qaroriga ko‘ra davlat aktivlari uch oy davomida sotilmaganda (Toshkent shahri va viloyat markazlari bundan mustasno) ularning boshlang‘ich narxi qoldiq (balans) qiymati yoki sof aktivlari miqdoridan qat’i nazar 10 foizigacha bosqichma-bosqich 10 foizdan pasaytirilishi belgilangan.

Yuqoridagilarga ko‘ra, 2024-yilda davlat aktivlari, davlat mulki ijarasi, ko‘chma savdo joylari bo‘yicha takroriy elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilgan mol-mulklar 2023-yilga nisbatan oz nisbatni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi PQ-153-son qarori bilan tasdiqlangan 2024-yilda qo‘sishmcha 218 ming hektar qishloq xo‘jaligi yer maydonini yangidan o‘zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish reja-ko‘rsatkichlari shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-maydagi 268-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun 2024-yilda ustuvor ravishda mulk huquqi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish rejasiga muvofiq 2024-yilda takroriy elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilgan. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan ijara huquqi asosidagi yer uchastkalari, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmangan mulk hamda ijara huquqi asosida yer uchastkalari 2023-yilga nisbatan 54661 ta ortiqni tashkil qilgan.

*Mazkur hisobotning to‘g‘riliqi va ma’lumotlarning ishonchligini tasdiqlayman.*

**Direktor**

**A.Ortikov**